



MAKTABGACHA TA'LIMNING DOLZARB MASALALARI: MUAMMO VA YECHIMLAR

**RESPUBLIKA ILMIY-AMALIY
KONFERENSIYA (REPUBLICAN
SCIENTIFIC-PRACTICAL
CONFERENCE)**

TERMIZ – 2024

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA'LIM,
FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

TERMIZ DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI

**MAKTABGACHA TA'LIMDA TARBIYANI TASHKIL ETISH
KAFEDRASI**

**«MAKTABGACHA TA'LIMNING DOLIZARB MASALALARI:
MUAMMO VA YECHIMLARI»**

**(“ACTUAL ISSUES IN PRESCHOOL EDUCATION: PROBLEMS
AND SOLUTIONS”**

**«АКТУАЛЬНЫЕ ВОПРОСЫ ДОШКОЛЬНОГО
ОБРАЗОВАНИЯ: ПРОБЛЕМЫ И ПУТИ РЕШЕНИЯ»**

RESPUBLIKA ILMIY-AMALIY KONFERENSIYASI

MATERIALLARI

**“Bekshox print servis”
TERMIZ – 2024**

Maktabgacha ta'limning dolizarb masalalari: muammo va yechimlari [Matn]:
to'plam / TERMIZ: Bekshox print servis, 2024. – 740 b.

Mazkur to'plam Termiz davlat pedagogika instituti "Maktabgacha ta'limning dolizarb masalalari: muammo va yechimlari" mavzusida o'tkazilgan respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallaridan iborat.

Anjuman O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2024-yilda xalqaro miqyosda o'tkaziladigan ilmiy va ilmiy-texnikaviy tadbirlar rejasiga muvofiq hamda Termiz davlat pedagogika institutida Toshkent shahridagi Puchyon universiteti, Toshkent Kimyo Xalqaro universiteti, Andijon viloyati Pedagogik maxorat markazi va boshqa milliy va xorijiy universitetlar hamda ilmiy tadqiqot markazlari hamkorligida tashkil etilgan.

Ilmiy to'plamda respublikamiz oliy o'quv yurtlarida faoliyat olib borayotgan professor-o'qituvchilar, sotsiologiya va amaliy psixologiya yo'nalishida ilmiy tadqiqotlar olib borayotgan olimlar, doktorantlar va mustaqil tadqiqotchilarning ilmiy maqolalari jamlangan.

© Maktabgacha ta'limning dolizarb masalalari: muammo va yechimlari
2024. © "Bekshox print servis" nashriyoti, 2024.

salohiyatli va bilimli yoshiarning o'rni benihoya kattadir. Bunday yoshiarning shakllanishi uchun esa ularning juda kichikligidanoq zamin qo'yiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. O'zbekiston Respublikasi maktabgacha ta'limtizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi. Toshkent sh., 2019 yil 8 may, PQ-4312-son.
2. SH.M.Mirziyoyev "O'qituvchi va murabbiylar kuni" munosabati bilan soha vakillariga yo'llagan tabrik nutqi. Toshkent, 01.10.2020-yil.
3. Achilov A.M., Akramov J.A., Goncharova O.V. "Bolalarning jismoniy sifatlarini tarbiyalash". T.: O'zbekiston, 2004-yil.
4. Haydarov B.T., Xolboyeva G.X. Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida jismoniy tarbiya nazariyasi va metodikasi darslik T.: O'zbekiston, 2000-yil.
5. Tadiyev M.X., Xusanxodjayeva S.I. "Maktabgacha yoshdagi bolalar jismoniy tarbiya nazariyasi va metodikasi" Toshkent.: "Iqtisod-moliya" 2017-yil.
6. "Oriental Art and Culture" Scientific-Methodical Journal - (3) III/ 2020-yil, 384-bet.

BO'LAJAK BOSHILANG'ICH SINIF O'QITUVCHILARINING KASBIY KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISH METODIKASINI TAKOMILLASHTIRISH

*Shokirov Temurmaliq Farhod o'g'li – Termiz
davlat pedagogika instituti Pedagogika va
inklyuziv ta'lim kafedrasio'qituvchisi*

Annotatsiya: Ushbu maqola bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining kasbiy kompetentliklarini rivojlantirish metodikasini takomillashtirish masalasiga bag'ishlangan. O'qituvchining kasbiy kompetentligi, uning pedagogik bilimlari, ko'nikmalari va psixologik tayyorgarligini o'z ichiga olgan keng tushuncha sifatida ko'rib chiqilgan. Tadqiqotda innovatsion pedagogik texnologiyalar, metodik yondashuvlar va o'qituvchining shaxsiy xususiyatlarining ta'lim jarayonidagi o'rni keng yoritilgan.

Kalit so'zlar: Kasbiy kompetentlik, boshlang'ich sinf o'qituvchisi, innovatsion pedagogik texnologiyalar, motivatsiya, metodik yondashuv, pedagogik kompetentlik, o'qituvchi malakasi, o'qituvchi faoliyat, o'qituvchi yondashuvi

Аннотация: Данная статья посвящена вопросу совершенствования методики развития профессиональных компетенций будущих учителей начальных классов. Профессиональная компетентность учителя рассматривается как широкое понятие, включающее его педагогические знания, умения и психологическую подготовку. В исследовании широко освещена роль инновационных педагогических технологий, методических подходов и личностных особенностей педагога в образовательном процессе.

Ключевые слова: профессиональная компетентность, учитель начальных классов, инновационные педагогические технологии, мотивация, методический подход, педагогическая компетентность, квалификация учителя, педагогическая деятельность, ученический подход.

Annotation: This article is devoted to the issue of improving the methodology of developing the professional competences of future primary school teachers. Professional competence of a teacher is considered as a broad concept that includes his pedagogical knowledge, skills and psychological preparation. The role of innovative pedagogical technologies, methodical approaches and teacher's personal characteristics in the educational process is widely covered in the research.

Key words: professional competence, primary school teacher, innovative pedagogical technologies, motivation, methodical approach, pedagogical competence, teacher's qualification, pedagogical activity, student's approach

Bugungi kunda Ta'lim tizimi, jamiyatning asosiy rivojlanish mexanizmlaridan biri bo'lib, uning samaradorligi, ta'lim beruvchi o'qituvchilarning kasbiy kompetentliklariga bog'liqdir. Ayniqsa, boshlang'ich sinf o'qituvchilari uchun bu masala alohida ahamiyatga ega. Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining kasbiy kompetentligini rivojlantirish, ularning nafaqat pedagogik bilim va ko'nikmalarini, balki o'quvchilarning ehtiyojlarini va jamiyatda yuz berayotgan o'zgarishlarga javob berish qobiliyatini ham oshirishni nazarda tutadi. Shunday qilib, boshlang'ich sinf o'qituvchilarining kasbiy kompetentligi, nafaqat o'quvchilarga bilim berish, balki ularning shaxsiy va ijtimoiy rivojlanishiga hissa qo'shish, o'quv jarayonini samarali boshqarish, innovatsion texnologiyalarni qo'llash orqali ta'limning sifatini oshirishga xizmat qiladi.

Shu bois, bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining kasbiy kompetentligini rivojlantirishda pedagogik metodikalarga yangicha yondashuvni joriy etish, o'quvchilarning bilim olish jarayonini yanada samarali va interfaol qilishda katta ahamiyatga ega. Bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy tayyorgarligini oshirish, ularga zamonaviy pedagogik texnologiyalarni qo'llash ko'nikmalarini shakllantirish, o'z faoliyatida innovatsion pedagogik usullarni samarali amalga oshirish imkoniyatlarini yaratish, bu jarayonning asosiy maqsadi va vazifalaridan biridir. Maqolada bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining kasbiy kompetentligini rivojlantirish metodikasini takomillashtirishning muhim jihatlari va usullari tahlil etiladi.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya

Pedagogika oliy ta'lim muassasalarida talabalarni o'qitish jarayonida kutilayotgan natija umummadaniy, umumkasbiy va kasbiy kompetensiyalar orqali taqdim etilgan asosiy ta'lim dasturlarini o'zlashtirishga qo'yilgan talablar ko'rinishida shakllantirilgan. Davlat ta'lim standartlarida bo'lajak o'qituvchining profili (mutaxassislik) kompetensiyasi ham aniqlangan bo'lib, u o'qituvchining kasbiy kompetentligining muhim tashkil etuvchisi hisoblanadi. Hozirgi vaqtda u juda kam o'rganilgan muammolardan biridir. Ana shunday masalalardan biri bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarida kasbiy kompetensiyalarni rivojlantirishga kompetentli yondashuvni aniqlash va Davlat ta'lim standartlarining asosiy qoidalariga mos holda uning tuzilmaviy modelini ishiab chiqishdan iborat. Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchisining kasbiy kompetentligini aniqlash uchun ushbu tushunchani o'rganishga bag'ishlangan ba'zi bir tadqiqotlarga e'tiborni qaratamiz. Kasbiy kompetensiya pedagogik muammo sifatida o'rganilgan tadqiqotlarda asosan, o'qituvchining xususiyatlari tahlil qilingan.

Pedagogik kompetentlik sohasidagi tadqiqotlar, o'qituvchilarning kasbiy faoliyatini samarali amalga oshirish uchun zarur bo'lgan bilim va ko'nikmalarni aniqlashga qaratilgan. A. N. Leontiev (2017) pedagogik kompetentlikni o'qituvchining kasbiy vazifalarni muvaffaqiyatli bajarishi uchun zarur bo'lgan bilimlar, ko'nikmalar va qiymatlarni ifodalovchi keng tushuncha sifatida ta'riflaydi. Shuningdek, O. V. Gubina (2020) va S. P. Shchukma (2020) tadqiqotlarida o'qituvchilarning kasbiy kompetentliklarini rivojlantirish uchun innovatsion pedagogik texnologiyalarni qo'llash zarurligi ta'kidlanadi. Ularning fikriga ko'ra, bo'lajak o'qituvchilarni yangi pedagogik metodlar va interfaol texnologiyalar bilan tanishtirish, ularning o'quvchilar bilan muloqot qilish ko'nikmalarini oshirishga yordam beradi.

Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining kasbiy kompetentliklarini rivojlantirishda zamonaviy pedagogik texnologiyalarni qo'llash muhim o'rin tutadi. Innovatsion pedagogik texnologiyalar, masalan, biended learning, gamification, flipped classroom kabi metodlar, o'qituvchilarni o'quvchilarga yanada samarali ta'lim berishga yo'naltirish imkonini beradi. E. M. Levina (2018) va V. I. Slavenin (2020) o'z tadqiqotlarida innovatsion texnologiyalarni qo'llashning o'quvchilarning bilim olish jarayoniga bo'lgan ijobiy ta'sirini ko'rsatadilar. Ularning fikriga ko'ra, zamonaviy pedagogik metodlar o'quvchilarning faoliligini oshirish, o'qituvchining metodik kompetentligini rivojlantirishga yordam beradi.

O'qituvchilarning kasbiy kompetentliklarini rivojlantirishda psixologik omillar ham katta ahamiyatga ega. O'qituvchining psixologik tayyorgarligi va uning motivatsiyasi ta'limdagi

muvaffaqiyatlarni ta'minlashda muhim rol o'ynaydi. A. N. Leontiev (2017) o'qituvchining psixologik tayyorgarligini uning o'quvchilarga individual yondashuvini amalga oshirish, pedagogik vaziyatlarga moslashuvchan bo'lishi sifatida ta'riflaydi. V. A. Krutetskiy (2019) esa o'qituvchining psixologik moslashuvchanligi va pedagogik stressni boshqarish qobiliyatini kasbiy kompetentlikning muhim komponentlari sifatida ko'rsatadi.

Pedagogik tayyorgarlik bo'lajak o'qituvchilarni kasbiy kompetentlikka erishishga tayyorlaydigan muhim jarayon hisoblanadi. Yuqori malakali boshlang'ich sinf o'qituvchilari uchun pedagogik tayyorgarlik nafaqat ilmiy nazariyalar va metodlarni, balki o'quvchilarga individual yondashuv va zamonaviy texnologiyalarni qo'llash ko'nikmalarini ham o'z ichiga oladi. O'qituvchining kasbiy tayyorgarligi, uning o'quvchilarga samarali ta'lim berish qobiliyatini oshiradi va ta'lim tizimining sifatini yaxshilaydi.

- V.I. Baydenko «kasbiy kompetentlik» tushunchasini quyidagicha tavsiflagan:

- o'z mutaxassisligi bo'yicha faoliyat yuritish uchun zarur bo'ladigan bilim, ko'nikma, malaka va qobiliyatlarga, kasbiy muammolarni qisman hal etishda bir vaqtda avtonomlik va egiluvchanlik xususiyatlariga ega bo'lish;

- kasbiy shaxslararo muhitda hamkasbiar bilan hamkorlikni rivojlantirish;

- faoliyat mezoni (sifat o'lchovi), qo'llash sohasi, talab etiladigan bilimlarni o'z ichiga olgan standartlarni loyihalash tuzilmasi;

- ish beruvchi talabiariga ko'ra kasbiy faoliyatni samarali amalga oshirish imkonini beruvchi qobiliyatlardan samarali foydalanish;

- insonga hozirgi zamon mehnat muhitida ish faoliyatini muvaffaqiyatli bajarish imkonini beruvchi bilimlar, xususiyatlar va ko'nikmalarining integrallashgan birlashuvi[2, 72].

Yuqorida keltirilganlarni umumlashtirgan holda V.I.Baydenko kasbiy kompetentlikni faoliyat talabiariga mos ravishda harakat qilishga, masala va muammolarni mustaqil hal etishga, shu bilan birga o'z faoliyati natijalari, ya'ni mos ko'nikmalar, texnik usullarni baholay olishga tayyorligi va qobiliyati sifatida tushunadi.

O.V. Xovovning fikriga ko'ra, kasbiy kompetentlik - bu nafaqat malaka, ya'ni faoliyat tajribasi, ko'nikma va bilimlar sifatida kasbiy malaka haqidagi, balki kasbiy faoliyatda mustaqillikni ta'minlovchi ijtimoiy-kommunikativ va individual qobiliyatlar haqidagi tasavvurlardan iborat[5, 454-455].

Yu.G. Tatur va V.Ye. Medvedevlar bo'lajak mutaxassisning kompetentligini kasbiy va ijtimoiy sohada muvaffaqiyatli ijodiy faoliyat yuritish uchun o'z imkoniyatini (bilim, ko'nikma, tajriba, shaxsiy sifatlar va boshqalar) amaliyotda namoyon qilishga intilish va qobiliyat sifatida, kompetensiyani esa, bo'lajak mutaxassisning ma'lum sohada muvaffaqiyatli faoliyat yurita olish uchun o'zining butun imkoniyatlari (bilim, malaka, tajriba va shaxsiy sifatlar) ni qo'llash va uning natijasiga ongli ravishda mas'uliyatini anglashga tayyorligi sifatida ta'riflagan.

G.A. Larionovanning fikriga ko'ra, tayyorlik tuzilmasiga amaliy bilimlar majmuasi va shaxsning faoliyatga kirishini ta'minlovchi xususiyatlari kiradi. Mehnatga tayyorgarlik esa ikkita, ya'ni operatsional (bilim va ko'nikmalar) va shaxsiy (ko'rsatma, mehnatga yo'naltirilganlik, kasbiy motiv xususiyatlari, odat va munosabatlar tizimi, emotsional va irodaviy funksiyalar, shaxsning kasbiy ahamiyatli sifatleri) komponentlardan iborat murakkab tizim hisoblanadi [3, 171].

Mutaxassisning kompetensiyalarga ega, ya'ni faoliyatning qaysi usulini egallashi, nimalarni bajara olishi, nimalarga tayyorligini aniqlash - kompetentli yondoshuv deyiladi. Oliy ta'lim muassasasi bitiruvchilarini tayyorlash sifatini boshqarishning konseptual muhim usullaridan biri - kasbiy ta'lim mazmunini modernizatsiyalashda kompetentli yondoshuvni amalga oshirishdir.

Muhokama va natijalar:

Erkin va faol fikrlash, ta'lim-tarbiya jarayonini modellashtirish, ta'lim berish va tarbiyalashning yangi g'oya va texnologiyalarini ishiib chiqish va amalga oshirish qobiliyatlariga

ega bo'lgan bo'lajak o'qituvchining kasbiy kompetentlik darajasini oshirish muammosi zamonaviy ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlarda dolzarb hisoblanadi.

Bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy kompetentligini rivojlantirishning asosiy sharoitlari quyidagilardan iborat:

1) tashkiliy-boshqaruvchanlilik (o'quv reja, o'quv jarayoni grafigi, dars jadvalini tuzish, kompetentlik darajasini aniqlash mezonini ishiab chiqish, ta'lim jarayonini moddiy-texnik ta'minlash);

2) o'quv-uslubiy (mashg'ulotlar mazmunini tanlash, turli kurslarning integratsiyasi, yetakchi g'oyalarni ajratish);

3) texnologik (nazorat-baholash, o'qitishning faol shakllarini tashkil etish, kompetentlikka kiruvchi bilimlar guruhlarini aniqlash, innovatsion texnologiyalarni qo'llash);

4) psixologik-pedagogik (talabalarning rivojlanish tashxisini amalga oshirish, o'qitishga motivatsiyani rag'batlantirish, kompetentlikning mezonini aniqlash, talabalarni hamkorlikda ishiashga yo'llash).

Bo'lajak o'qituvchining kasbiy kompetentligi tuzilmasi uning pedagogik ko'nikmalari orqali, ko'nikmalar (nazariy bilimlarga asoslangan va pedagogik masalalarni yechishga yo'naltirilgan bilimlar) esa, bosqichma-bosqich rivojlanuvchi harakatlar majmuasi orqali aniqlanadi.

Xulosa

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak bugungi kunda «Ta'lim to'g'risidagi qonun»[1] talabiarini amalga oshirish jarayonida yuqori malakali pedagog kadrlarni tayyorlash muhim muammo sifatida kun tartibiga qo'yilmoqda. Qonunda e'tirof etilgan yangicha modeidagi shaxsni kamol toptirish, uning chuqur bilimlar sohibi bo'lib yetishishi, barkamoiligini kafolatlovchi shart-sharoitlar orasida o'qituvchi kasbiy-metodik kompetentligini ta'lim va tarbiya jarayonlariga tatbiq etishda psixologiyaning o'z uslub va qoidalari yetarli bo'lmaganday. Shunga ko'ra yosh avlod ta'lim olish davrlaridagi rivojlanish tendensiyalaridan tortib, yangicha o'qitish texnologiyalarini ta'lim oluvchi tomonidan o'zlashtirilishi va undagi aqliy hamda intellektual qobiliyatlarga nechog'lik ta'sir ko'rsatayotganligini o'rganish hamda psixologiyadagi metodlarni didaktik metodlar bilan uyg'unlashtirishni taqozo etadi. Buning uchun O'qituvchilarning kasbiy kompetentliklarini rivojlantirishda pedagogik metodlar, psixologik tayyorgarlik va innovatsion texnologiyalarni qo'llashning ahamiyati yuksakdir. Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini zamonaviy ta'lim talabiariga mos ravishda tayyorlash, ularning kasbiy rivojlanishini va metodik malakalarini oshirish, ta'lim tizimining sifatini yaxshilashga xizmat qiladi. Bu, o'z navbatida, o'qituvchilarning muvaffaqiyatli ta'lim olishi va ularning akademik rivojlanishiga ijobiy ta'sir qilladi. O'qituvchilarni tayyorlashda zamonaviy pedagogik metodlar va psixologik yondashuvlar yordamida ularning kasbiy kompetentliklarini oshirish ta'lim jarayonini takomillashtirishga olib keladi.

Adabiyotlar ro'yxati

1. O'zbekiston Respublikasining Ta'lim to'g'risidagi Qonuni, 23.09.2020 yildagi O'RQ637-son.
2. Zhabbarov, A. (2020). Pedagogik kompetentlik va o'qituvchilarning kasbiy tayyorgarligi. Tashkent: Orienta Press.
3. Nazarova, R. B. (2022). Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini tayyorlashda innovatsion metodlarni qo'llash. Tashkent: Fan va texnologiya.
4. Ismoilov, M. K. (2021). Pedagogik faoliyatda psixologik tayyorgarlik: O'qituvchilar uchun tavsiyalar. Toshkent: Murabbiy.
5. Krutetskiy, V. A. (2019). O'qituvchilarni kasbiy rivojlantirish va motivatsiya. Tashkent: Akademiya.
6. Slattenin, V. I. (2020). Pedagogik texnologiyalar va innovatsion metodlar. Moskva: YHigher School Publishing.

7. Levina, E. M. (2018). Innovatsion pedagogik texnologiyalar va ularning ta'lim jarayonidagi roli. Sankt-Peterburg: Nauka.

8. Turaeva, N. A. (2015). Bo'lajak o'qituvchilarni tayyorlashda metodik va psixologik yondashuvlar. Tashkent: Uzbekistan Pedagogical Press.

MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTLARIDA MASHG'ULOTLARI JARAYONINI INTEGRASIYALASH

Turdiyev Azamat G'ayratovich Termiz davlat pedagogika instituti maktabgacha va boshlang'ich ta'lim fakulteti maktabgacha ta'limda tarbiyani tashkil etish kafedrası o'qituvchisi

Maktabgacha ta'lim O'zbekiston Respublikasi ta'lim tizimining boshlang'ich bo'g'ini hisoblanadi. Bola bog'chaga kelishi bilan uning hayotida muhim bosqich boshlanib, muassasa uni yangi ijtimoiy mavqega, o'quvchilik faoliyatiga tayyorlab boradi. Bog'chada bolalarni yangi an'analar ruhida mehnatga munosabatini tarbiyalash, intilishlarini e'tibordan chetda qoldirmaslik, ularning o'z vaqtida bilimini shakllantirish, xulqini to'g'rilash uning maktab hayotini to'g'ri o'zlashtirishi, boshqalar bilan munosabatga kirishishida kata yordam beradi. Aks holda bola maktabda butunlay yangi dunyoga, o'zi uchun begona bo'lgan muhitga tushib, darslarni o'zlashtirishda qiynalishi mumkin. Shuning uchun bolalarni yaxshi tarbiyalanishi uchun quyidagi xususiyatlarni hisobga olish zarur:

1. Jismoniy xususiyat.
2. Tabaqalantirish qobiliyatining ma'lum darajasini shuningdek xotiraning rivojlanish darajasini inobatga oluvchi intellektual xususiyat.
3. Diqqatni, sabr-toqatni boshqarish, topshiriqlarni bajarish tayyorgarligi ifodalangan ishga munosabat.
4. Tarbiyachidan holi bo'lish, guruh bilan aloqa o'rnatish qobiliyatini ko'rsatuvchi ijtimoiy xususiyat.

Albatta bolada bu ko'rsatkichlar o'z-o'zidan shakllanmaydi, chunki ular pedagogik jarayon mahsulidir, shu bois tarbiyachi bolalar ongini o'stiradigan mustaqil fikr yuritish ko'nikmalarini rivojlantiradigan real muhit yaratishi lozim. Boshqacha qilib aytganda olib boriladigan mashg'ulotlarni yangi pedagogik texnologiyalar asosida integratsiyalashgan holda amalga oshirish maqsadga muvofiq. Mashg'ulotlarga integratsion yondoshish asosan atrof borliq va ularning o'zaro uyg'unlashuvida namoyon bo'ladi. Maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalar ma'naviy-axloqiy sifatlarini shakllantirishda integratsion texnologiyaning ahamiyati kata ekanligiga qaramay, maktabgacha ta'lim muassasalarida baribir kamchiliklar mavjud. Masalan: o'zaro muvofiqlashtirish sistemasi o'rnatilmagan. Mashg'ulotlarni mujassam holda tashkil etish oqsamoqda va ularni mashg'ulotlar jarayonida qo'llash tajribasi yetishmaydi. Bolalar bog'chasida integratsiyani qo'llash uchun eng avvalo turli mashg'ulotlarning mavzulari yuzasidan bir-biriga bog'lanishiga, bolalar ijodkorligi imkoniyatni amalga oshirish shakli, sharoitlariga e'tibor berish kerak. Integratsion texnologiyadan faoliyatimizda foydalanish uchun turli mashg'ulotlarning o'zaro o'xshashliklaridan, ularning o'zaro ichki mohiyatlarini bir biriga bog'liqligidan, masalan: nutq o'stirish, tasviriy faoliyat, musiqa, tevarak-atrof bilan tanishtirish, tabiat va ularning ijodiy shakllaridan, bir birining hisobidan emas o'zaro manfaati uchun, o'shanda ham har birining o'ziga xosligini buzmaganda holatda foydalaniladi. Amalga oshirilishi ko'zda tutilayotgan integratsiya mashg'uloti ayni biror mashg'ulot mazmunida chuqur, har tomonlama aloqaga ega bo'lgan, mashg'ulotlarning bog'lanishi, uyg'unlashishi darajasida ta'minlanishi kerak. Masalan: o'stirish va tevarak milliy va umuminsoniy qadriyatlarni, axloq va nafosat, muloqot madaniyati me'yorlarini tabiat, jamiyatga oid